

O‘ZBEK ONALARINING FARZANDLARINI O‘ZBEKONA ERKALASHLARI

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
203-guruh talabasi Xoshimova Nargiza

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola avvalo "bola" so‘zining qadimiyligi, bizning kelajagimiz bo‘lmish farzandlarimiz, aynan biz o‘zbek ayollari ularni qaysi so‘zlar orqali erkalashimiz to‘g‘risida bo‘lib, sodda tilda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bola, ona, erkalash, suyish, alla, go‘dak, o‘g‘il, qiz "arslon", bo"tam", kelajak.

Ayol kishining fazilati bola bilan bo‘lgan munosabatida ochiladi.(F.Musajonov."Himmat".)

Oila quvonchi farzanddir. Ayol ona bo‘ldi. Bag‘rida orom olayotgan go‘dak uning zurriyoti . Go‘dakni bag‘riga bosar ekan, "oppog‘im", "shirintoyim" deb erkaladi. Avvalo "bola" so‘zining kelib chiqishi: qadimgi turkiy tilda ba:la shaklida qo‘llangan, keyinroq Mahmud Qoshg‘ariy qomusiy "Devonu lug‘otit turk" asarida bala-"polapon"-qush bolasini anglashini ta'kidlagan (Devon, 3 ,250). "Bola"- yangi tug‘ilgan, hali ko‘krakdan, ona bag‘ridan ajratilmagan go‘dak, chaqaloq. Bola-hali yosh, voyaga yetmagan odam¹. Barcha davlatlarda ham onalar farzandlarini eng yaxshi so‘zlar bilan suyib, erkalashadi. Lekin aynan o‘zbek ayollari, onalari bolajonlarini uy hayvonlarining bolalari, qushlar, gullar, hattoki yirtqich hayvonlarga qiyoslab ham erkalashadi. Hattoki ajoyib maqollarimiz bor: Qo‘ng‘iz bo‘lasini oppog‘im deydi, kirpi bolasini yumshog‘im deydi. Odamning mevasi-bola. Bol shirin, bola undan shirin². Ota-onalar bolaning ismini chaqaloqlik paytida juda kam qo‘llashadi. Go‘dakni erkalovchi so‘zlar bilan masalan: chaqaloq qani, meni shirinim nima qilyapti, asalimni eb qo‘yaman va hokazolar deb erkalashadi. Bolalarga aytiladigan "alla" umuminsoniy qoshiqdir. "Alla" xalq og‘zaki ijodi bo‘lib, azaliy udumlarimizdan. Ushbu qo‘shiq orqali onalar o‘z tuyg‘ularini, erkalashlarini shirali ohangda kuylashadi, farzandlari orom olib uxlashlari uchun beshikni, belanchakni ohista tebratishadi. Alla eshitib beshikda katta bo‘lgan bola albatta kuy va qo‘shiqqa mehrlili va qomatli bo‘lib ulg‘ayadi. Ana shu "alla" qo‘shig‘ida ham "qo‘zim, alla", "qozichog‘im, alla", "arslonim, alla", "guli-rayhonim, alla" kabi so‘zlar onaning bolasiga bo‘lgan cheksiz mehrini ifodalaydi. Bu erkalovchi so‘zlardagi "qo‘zi", "qo‘zichoq"-qo‘yning bolasi bo‘lib, yangi tug‘ilganda yunglari jingalak, qop-qora, yaltirab turadi. Ovozi zaif, yoqimli, oyoqlari kuchsiz bo‘ladi.

METODOLOGIYA

Onalarimiz erkalovchi so‘zlarni farzandning o‘g‘il yoki qiz ekanligiga qarab ishlatishadi. Masalan o‘g‘il bolalarni "qulunim", "polaponim", "qo‘zim", "qo‘zichog‘im", "toychoqim" deb erkalatsa, qizaloqlarini "guli-rayhonim", "quyoshim", "sanam qizim", "bulbul qizim", deb erkalovchi so‘zlardan

¹ www.ziyouz.comkutubxonasi.

² www.ziyouz.comkutubxona.

foydalanishadi. O'g'il bolalar ota-onaning suyanadigan tog'idirlar, yo'llarini yorituvchi yulduzidirlar, qo'rqmas arslonidirlar, ertangi kunidirlar. Qadimda bola onasiga ko'p suykilib erkalansa, "xumpar" deb erkalatishar ekan. "Xumpar" deb mushukka aytiladi va bu so'z asosan "shumtaka" mazmunida keladi. O'g'il bolalarni buva-buvijonlar "bo'talog'im", "qulunim", "xo'tikcham" deb ham erkalashadi. Tuyaning bolasi bo'lmish "bo'taloq", otning bolasi "qulun", va eshshakning bolasi "xo'tikcha" - bu so'zlarning mohiyatan ular ham onasi bag'ridagi go'daklardir. Farzandlar katta bo'lishar ekan, erkalovchi so'zlar ham o'zgara boradi. Masalan: "bo'tam" - erkalovchi so'z ma'nosi-bolani o'ziga yaqin olish, xol so'rash o'rnida keladi. "Toychoq'im" - bolaga nisbatan uning chopqirligi nazarda tutiladi. "Uloqcham" erkalovchi so'z- sho'x, sho'xlik qiladiqan, ko'p sakraydigan bolaga, qizaloqlarga ham qo'llaniladi. Ko'zlari katta-katta bolajonlarni "ohu ko'zligim" deb erkalashsa, ovozi yoqimli bolajonlarni "bulbulim" deb erkalashadi. "Arslonim" deb erkalash-bolaning qo'rqmas, botir, jasur bo'lishi nazarda tutilib aytiladi. "Botalog'im" erkalovchi so'z- bolaning "bo'taloq" kabi sabrli, qiyinchiliklarga bardoshli, chidamliligi uning ushbu xususiyatlari bolasida ham bo'lishini xohlaydigan onalar qo'llaydilar. "Arslonim", "bo'tam", "toy"- bu erkalashlar farzand 10-12 yoshlarda bo'lsa, qo'llaniladi. Ushbu erkalovchi so'zlar orqali har bir ota-ona farzandlarida ulardagi yaxshi xususiyatlarni: mag'rurlik, shijoat, ishonch, chopqirlik, chaqqonlik bo'lishini xohlashadi. Ammo farzandlarni har doim ham chiroyli, quloqqa yoqadigan so'zlar bilan erkalashmaydi. Ularni ko'z tegishidan, nazardan asrash uchun ham "xunugim", qoravoy", "sassiqcha", "puchuqvoy", "qaqilldoq", "pahmog'oy" kabi so'zlar bilan ham erkalashadi. Bilamizki, farzand gulday nozik bo'ladi. Hattoki ota-onaning ham o'z farzandiga nazari tegishi bor gap, shuning uchun ko'p bora "Moshoolloh" deb aytishlari, erkalashlari tavsiya etiladi. Bolalar ulg'ayib katta bo'lsalar, erkalashlar o'rnini "uying donga to'lsin", "o'zingdan ko'paygin", "orqamda qolgin", "baraka topgin", "xudo xayringni bersin", "urug'ingdan ko'paygin" kabi duolar bilan almashadi. Bu duolar ortida esa buvijonlarimizning o'zgacha erkalashlari yotadi. Ya'ni kelajakka umid-nabiralarni suyib-erkalash. Ushbu maqolani yozishimga turtki bo'lgan maqola-Filologiya fanlari doktori, professor Yorqinjon Odilovning "O'zbekning o'z so'zlari" nomli yangi rukni turtki bo'ldi. Bu ruknda har bir uy hayvonlari bolalarining nomlanishi sodda va tushunarli tarzda yoritilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barcha millatlar va elatlarda ham buva-buvijonlar, ota-ona, aka-singil va opa-uka o'rtasida ham go'daklarni, kichik yoshdagi bolalarni suyib erkalash, chiroyli so'zlar qo'llash, ularni bag'riga olish ham erkalashning eng samimiy turlaridir. Vaholanki, bolalarning begonasi bo'lmaydi. Bolalarga qanchalik mehr berib katta qilsak, ular shunchalik mehrli bo'lib ulg'ayishadi. Har bir millat, har bir elatning kelajagi- bu bolajonlarimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://oyina.uz/uz/teahause/319>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/amir-temur-saltanatida-sog-lom-avlod-tarbiyasi-masalalari>
3. <https://www.ertak.uz>